

**TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHDA INTERNET XIZMATLARIDAN FOYDALANISHNING O'RNI****Xolmurodov Shuxrat Oqboyevich**

Termiz davlat pedagogika institute Matematika va informatika kafedrası katta o'qituvchisi

Almardanova Xurshida Taliyevna

Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

Mengliboyeva Fotima Almurzayevna

Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ta'lim jarayonini tashkil etishda Internet xizmatlaridan foydalanishning bugungi kundagi ahamiyati va haqida Internet xizmatlari turlari haqida fikr yuritdik.

Аннотация: В данной статье мы обсудили современное значение использования интернет-сервисов в организации образовательного процесса и типы интернет-сервисов.

Abstract: In this article, we discussed the current importance of using Internet services in organizing the educational process and the types of Internet services.

Kalit so'zlar: Kompyuter savodxonligi, o'quv tarbiya jarayoni, internet tezligi, milliy axborot qidiruv tizimi, pedagogik texnologiya xususiyatlari.

Kirish.

Bugungi kunda internet xizmatlari ta'lim jarayonini yanada interaktiv va samarali qilishda muhim rol o'ynamoqda. Internetning keng imkoniyatlari o'qituvchilarga darslarni yanada boy va qiziqarli qilish imkoniyatini beradi, talabalar esa bilimlarni yanada qulay va zamonaviy shakllarda o'zlashtirishlari mumkin. Ushbu maqolada ta'lim jarayonida internet xizmatlaridan foydalanishning afzalliklari, imkoniyatlari va amaliyotda qo'llanishi haqida so'z yuritiladi. Internet xizmatlarining ta'limdagi o'rni va afzalliklari. Ma'lumot manbalari va tadqiqot imkoniyatlari Internetning global ma'lumotlar bazasi sifatidagi o'rni beqiyosdir. Talabalar Wikipedia, Google Scholar, Britannica kabi manbalardan foydalanib, ilmiy va tarixiy ma'lumotlarni tezda topishlari mumkin. Shuningdek, maqolalar, ilmiy tadqiqotlar va kitoblarga onlayn kirish imkoniyati o'qish jarayonini yanada qulay va samarali qiladi. Interaktiv o'quv platformalari Zoom, Microsoft Teams, Google Classroom kabi platformalar orqali masofaviy o'qitish samarali amalga oshirilmoqda. Bu xizmatlar nafaqat onlayn



Learning and Sustainable Innovation

darslar o‘tkazish imkonini beradi, balki talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasida hamkorlikni osonlashtiradi. Interaktiv onlayn doskalar, virtual sinflar va video konferensiyalar o‘qitish jarayonini jonlantiradi. Ijtimoiy tarmoqlar va ta‘lim jarayoni Ijtimoiy tarmoqlar, ayniqsa, Facebook, Telegram va Instagram, nafaqat ko‘ngilochar balki o‘quv resurslari tarqatish platformalari sifatida ham foydalanilmoqda. Ushbu platformalarda maxsus o‘quv guruhlarini tuzish, darslar va topshiriqlar haqida ma‘lumot berish, maslahat va fikr almashish imkoniyati mavjud. Axborot texnologiyalarining asbob-uskuna va dasturiy vositalarining juda jadallik bilan rivojlanib borishi, masalan, yangi avlod kompyuterlarining, yangi dasturlarining chiqishi, turli ta‘limiy vazifalarni hal etish qulay texnikaviy imkoniyatlar ochib beradi. Biroq ilmiy izlanishlar o‘quv maqsadida foydalaniladigan axborot tizimlari o‘z didaktik sifatlariga ko‘ra hali ham qoniqarsiz darajada ekanligini ko‘rsatadi. Buning sababi shundaki, axborot texnologiyalarini o‘qitish maqsadlarida foydalanishning metodik (pedagogik) vositalari axborotlashtirishning texnikaviy vositalari rivojlanishidan ancha orqada qolib ketyapti. Kompyuterning imkoniyatlari juda katta, biroq pedagogik maqsadlarda u yetarli darajada foydalanilmayapti. O‘qitish maqsadidagi axborot uni loyihalashtirish bosqichida kiritiladi. Xususan, axborot avtomatlashtirilgan o‘qitish tizimlarining ma‘lumotlar bazasini yaratishda, elektron darsliklarni tuzish uchun o‘quv materialini tayyorlashda, modellashtiruvchi turdagi kompyuter tizimlari bilan o‘quv ishlarining ssenariylarini, masalalar va mashqlar, test topshiriqlari tuzishda kiritiladi. Axborot texnologiyalari bir yo‘la bir necha fan sohalariga informatika, matematika, kibernetika, psixologiya, pedagogika kabi fanlarga oid ma‘lumotlarni birlashtiradi. Biroq bu uyg‘unlikda psixologik-pedagogik asos yetakchi o‘rin tutadi. Axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va o‘qitish jarayoniga joriy qilish muhim o‘rin egallaydi. Yangi axborot texnologiyalari o‘quv jarayoni va ilmiy-tadqiqot ishlari uchun katta ahamiyatga ega. Odatdagi ta‘limiy texnologiyalardan farqli ravishda, axborot texnologiyalarida mehnat predmeti va uning natijasi sifatida axborot, mehnat quroli bo‘lib esa axborotlashtirishning texnikaviy vositalari xizmat qiladi. Kompyuter vositalari o‘quv-tarbiya jarayonining turli bosqichlarida:

- o‘quvchilarga o‘quv materiallarini taqdim etish bosqichida;
- kompyuter bilan interfaol o‘zaro birgalashib, harakat qilish jarayonida o‘quv materialini o‘zlashtirishda;
- o‘zlashtirilgan bilimlar, malakalar va ko‘nikmalarni takrorlash va



mustahkamlashda;

- o'qitishda erishilgan natijalarni oraliq va yakuniy nazorat qilish va o'z-o'zini nazorat qilish bosqichida;
- o'quv materialini qismlarga bo'lish, uni klassifikatsiyalash va tizimlashtirishni takomillashtirish orqali o'qitish jarayoniga va uning natijalariga tuzatishlar kiritish bosqichida foydalanilishi mumkin.

Oqilona tuzilgan kompyuterli o'qitish dasturlari axborotni o'quvchi tomonidan o'zlashtirilishining psixologik va pedagogik qoidalari e'tiborga olingan taqdirda o'qitishni individuallashtirish va differensiyalashtirishga, bolalarning qiziqishlari va o'qishdagi mustaqil faoliyatini rag'batlantirishga imkon beradi. Maktab pedagogik jarayonida kompyuter o'qituvchi, ishchi qurol, o'qitish obyekti, hamkorlik qiluvchi jamoa, bo'sh vaqt (o'yin) muhiti xizmatlarini bajarishi mumkin (G. K. Selefko). Kompyuter o'qituvchi sifatida — o'qituvchini va kitobni qisman yoki to'liq o'rnini bosadigan o'quv axboroti manbai; multimediya va telekommunikatsiya imkoniyatlari bilan tamoman yangi sifat darajasidagi ko'rgazmali vosita; individual va axborot muhiti; trenajyor; o'quvchilar bilimni tashhislash va nazorat qilishning vositasi vazifalarini bajaradi. Ishchi qurol sifatida kompyuter — matnlarni tayyorlash va ularni saqlash matn redaktori; grafikaviy redaktor va katta imkoniyatlarga ega hisoblash mashinasi vazifalarini bajaradi. O'qitish obyekti sifatidagi xizmatini kompyuter-dasturlashtirish; dasturli mahsulotlarni tayyorlash; har turli axborot muhitlarini qo'llash moboynda bajaradi. Hamkorlik qiluvchi jamoa — keng auditoriya bilan muloqot qilish, Internetda bog'lanish orqali vujudga keltiriladi.

Xulosa.

Mamlakatimiz rivojlanishining muhim sharti zamonaviy iqtisodiyot fan, madaniyat, texnika va texnologiya rivoji asosida kadrlar tayyorlashning takomillashgan tizimining amal qilishiga erishishdir. Fan va texnikaning jadal rivojlanishi ta'lim jarayonida ham jiddiy o'zgarishlar yuz berishini taqozo etdi. Dars davomida o'quvchilarning faolligi va qiziquvchanligini muntazam ravishda rivojlantirib borish dolzarb mavzuga aylandi. Ta'lim jarayoni markazida o'quvchining turishi va sub'yekt sifatida faoliyat ko'rsatishi lozim bo'lib qoldi. Agar dars jarayoni zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda mukammal rejalashtirilmasa, aniq qo'yilgan maqsadga erishib bo'lmaydi. Natijada zaif, yetarli darajada tashkil etilmagan dars samarasiz yakunlanadi. O'quvchi zerikib keraksiz hissiyotlarga beriladi, uning bilimga chanqoqligi pasayadi va hatto o'qishga bo'lgan qiziqishi sinadi. O'quvchi bu fanga salbiy munosabatda bo'la boshlaydi. Shuning uchun o'qituvchi interfaol metodlarni



dars jarayoniga tatbiq qilar ekan, o‘quvchilarda fanga va mavzuga qiziqishni uyg‘ota olishni o‘z rejasidan chetda qoldirmaslik kerak. Didaktik adabiyotlarda, o‘quv munozaralari va bahslarni tashkil etishda interfaol usullardan samarali foydalanish tavsiya etila boshladi. O‘qitishning zamonaviy metodlarining quyidagi xususiyatlari mavjud: Insonning muhim hayotiy ehtiyoji bo‘lgan muloqot – o‘qitish jarayonining barcha bosqichlarida qo‘llaniladi. O‘qitish jarayonida o‘quvchilarga o‘z kuchi, bilimi, iqtidorini namoyon etishga teng imkoniyatlar beriladi. O‘quvchilarning kichik guruhlarda hamkorlikda ishlashida ijtimoiy-psixologik jihatdan qulay muhit yaratilib, muloqotda bosqichma-bosqich va samarali ishtirok etishga zamin tayyorlanadi. O‘quvchilar muloqotda faol ishtirok etishlari uchun faqat eshitishlari shart emas, balki eshitganlarini tahlil qilish, fikr yuritish, fikrlarning asosli va tushunarli bo‘lishiga erishish lozimligini anglaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

- 1-O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. – Toshkent, 2020.
- 2-O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
- 3-Abduqodirov A.A. Ta’limda axborot texnologiyalari. – Toshkent: Fan, 2019.
- 4-Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalari. – Toshkent, 2018.
- 5-Polat E.S. Yangi pedagogik va axborot texnologiyalari. – Moskva, 2017.